

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10908473>

O‘QUVCHI-YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Adizova Marjona Mirazizovna

Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti
"Ijtimoiy ish" ta'lim yo'nalishi 5-2 IJI-20 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchi-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, huquqiy madaniyatni xalqimizning azaliy an‘analariga, qadriyatlariga asoslangan holda yoshlar ongiga singdirish, hg‘ukumatimiz tomonidan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasiga oid huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va maqsadli ishlarni amalda ijro etilishi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, Farmon, qaror, Milliy strategiya, dastur, huquqiy ong, tarbiya, jamiyat, oila, mahalla, davlat tashkilotlari, inson huquqlari.

Abstract. This article covers issues such as the formation of legal consciousness and legal culture of students, instilling legal culture into the minds of young people based on the age-old traditions and values of our people, the adoption of legal documents by our government in the field of raising legal culture in society, and the implementation of targeted works.

Key words: legal culture, Decree, decision, National strategy, program, legal awareness, education, society, family, neighborhood, state organizations, human rights.

“Bugungi kunda yurtimizda barcha jabhalarda tub o‘zgarishlar yuz berayotgan mas’uliyatli pallada huquqiy tarbiyaning barcha shakl va usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim. Shu sababli huquqiy madaniyatimiz darajasiga tanqidiy baho berib, muammolarimiz sababini chuqur o‘rganishimiz kerak. Biroq faqatgina qonunlarni o‘rgatish va javobgarlik bilan qo‘rqitish orqali qonun ustuvorligiga va taraqqiyotga erisha olmaymiz”[1]. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida o‘quvchi-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy

davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanmayotganligimiz yuqoridagi fikrlarimiz isbotidir.

“2022 yilning 15 may sanasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi”[1].

Qaror bilan 2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Xususan, oilada va ta‘lim muassasalarida huquqiy tarbiyani va madaniyatni shakllantirish orqali oilalardagi notinchlik va zo‘ravonlikning bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlarining oldini olinadi hamda ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarni ta‘qib qilishga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiriladi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida huquqiy nigilizm holatlarini bartaraf qilish, mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga imtiyozlar va moddiy yordam berish, nafaqa tayinlash, ishsizlikdan himoyalanih, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy yordam olish tartibi bo‘yicha tizimli targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish, oliy ta‘lim muassasalari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv markazlarida “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bola huquqlari” o‘quv kurslarini joriy etish oila va ta‘lim tizimidagi huquqiy madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘quvchi-yoshlar orasida halqimizning ko‘p asrlik an‘analari va qadriyatlariga asoslangan huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy ma‘rifiy tadbirlar va uchrashuvlarni kengaytirish, xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirish orqali vatanparvarlik hissini kuchaytirish kabi dolzarb vazifalar turgan bir paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi ayni muddaodir.


“Mazkur Farmonda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu Farmon o‘sib kelayotgan yosh avlodning mamlakatimiz qonunchiligi haqidagi bilimi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini anglagan jamiyatning faol a‘zolari sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz”[2].

Jumladan, o‘quvchi-yoshlar ongida huquqiy madaniyatni yuksaltirishda eng avvalo, huquqiy ta‘lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta‘minlanmaganligini,

yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligi aytib o'tilgan. Huquqiy madaniyat – fuqarolarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalarini talqin qila olishi hamda ulardan to'g'ri foydalana olishidir.

Shulardan kelib chiqib, 2020-yil 22-iyunda Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilindi. Strategiyaning maqsadi – O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha izchil olib borilayotgan davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vazifalari va yo'nalishlarini belgilab olishdan iborat. Milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni ko'zda tutadi:

- shaxsiy va siyosiy huquqlarni himoya qilish;
- iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilish hamda barqaror rivojlanish;
- implementatsiya va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish;
- inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish;
- inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.



1-rasm. Milliy strategiyada ko'zda tutilgan ustuvor yo'nalishlar

Bunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish quyidagi prinsip bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi:

shaxs → oila → mahalla → ta'lim muassasasi → tashkilot → jamiyat

Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi. Jumladan, biz jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilash [3], qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga etkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo'naltirilgan maqsadli choratadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Zero, faqat erkin, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o'z huquqlaridan to'laligicha foydalana oladi.

O'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda esa xodimlarning mehnat huquqi, huquqbuzarliklarning oldini olish, o'quvchi savodxonlik bo'yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" va "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"ni o'tkazish maqsadida faol, jamoatchilik bilan ishlash ko'nikmalariga ega huquqiy targ'ibot guruhlarini tashkil qilish va qonunchilik hujjatlarining targ'ibot qilinishini ta'minlash tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim dargohlarida esa o'quvchi-yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazish bilan bir qatorda, o'quvchilarni bo'lim binosiga taklif qilgan holda, ularni sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor qilib, qonunlarga kiritilayotgan o'zgartirish va yangiliklar haqida, shuningdek yoshlarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish borasida keng tushunchalar berib borilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ko'zda tutilgan maqsadli ishlarni amalda ijro etilishi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni his qilishimiz, shundagina fuqarolar o'rtasida huquqiy madaniyat yuksalib boradi va qonunlari ustuvor bo'lgan davlatgina rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston, 2021. 82 bet.
2. Huquqiy ong yuksalsa, jamiyat taraqqiyotiga yo‘l ochiladi!- F.Eshonqulov / —Adolat ijtimoiy siyosiy gazetasi №7 /2019.
3. Тошева, Н. М., Тухтаева, З. Ш., & Атамурадова, Г. О. (2014). Значение самостоятельного образования при формировании творческой деятельности. *Молодой ученый*, (8), 878-879.
4. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(3), 125-131.
5. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / prof. X.T. Odilqoriyev taxriri ostida. – T.: “Sharq” 2009. – V. 271. (Theory of State and Law: Textbook / prof. Edited by X.T. Odilkariyev. – T.: “Sharq” 2009. – P. 271.)
6. Zebo, T. X., & E‘zoza, E. (2023). OLIY TA‘LIMDA TALABALAR BILAN OLIB BORILADIGAN O‘QUV-METODIK VA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY ISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 489-496.
7. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси.
8. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas‘ul R.A. Muhitdinov va boshq.; mas‘ul muharrir N. Toychiev. – T.: Adolat, 2010. – B. 140.